IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MASLAHATI INSTITUTINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ISTIQBOLLARI

Zargarov Sanjar

Bank-moliya akademiyasi

Soliqlar va soliqqa tortish yo`nalishi tinglovchisi.

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi – soliq maslahati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot metodologiyasi – tadqiqot tashkiliy-uslubiy omillar nazariyasi asoslarini tahlil qilish, uning bir qator kamchiliklarini aniqlash va yakunda soliq maslahatchilari institutini zamon talablariga muvofiq rivojlantirishning maqbul modelini asoslab berish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati O`zbekiston Respublikasining ishbilarmonlik muhiti va investitsiya iqlimini sezilarli darajada yaxshilashdan iboratdir. Soliq maslahatchilarini kasbiy tayyorlash tizimini, davlat attestatsiyasi va ro‘yxatga olish tartibini, soliq maslahati sohasidagi mutaxassislarni akkreditatsiya qilish va sertifikatlashtirish tartibini rivojlantirish jamiyatning soliq madaniyatini yuksaltirishga hamda xalqaro miqyosda kasbiy hamjamiyat manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari O`zbekistonda soliq maslahati institutini rivojlantirishning jahon analoglari tahlili natijalaridan iborat bo‘lib, unda soliq maslahatchilari institutining rivojlantirish (jumladan, maslahatchilar soni va sifatini oshirish) borasida taklif berilgan.

Tadqiqotning o‘ziga xosligi va ilmiy yangiligi shundan iboratki, tadqiqot davomida soliq maslahatchilari institutini rivojlantirish borasida yangi yondashuvlari va omillari aniqlandi. Ilmiy yangilik soliq maslahati institutining dolzarbligi va samaradorligini ta’minlash maqsadida ushbu yo‘nalishdagi mavjud jahon tendensiyalari hamda nazariy konsepsiyalar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida aniqlashdan iborat**.**

Kalit so‘zlar: soliq maslahatchisi, soliq maslahati instituti, Yevropa davlatlaridagi tajriba, soliq hisobi, buxgalteriya hisobi, risklarni boshqarish tizimi.

KIRISH

Hozirgi kunda O`zbekistonda fuqarolarning soliq qonunchiligi bo‘yicha maslahat xizmatlariga talabi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Shunga o‘xshash tendensiyani xorijiy mamlakatlarda ham ko‘rish mumkin. Bu soliq maslahati biznesning muhim jihati ekanligini hamda ushbu faoliyat sohasi professional maslahatchilardan yuqori darajadagi tayyorgarlik va mas’uliyatni talab qilishini isbotlaydi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, O`zbekiston sharoitida iqtisodiyotni har tomonlama modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish vazifalari fonida sertifikatlangan soliq maslahatchilari institutini yaratish va uni yanada rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

O`zbekistonda soliq maslahatchilari institutining shakllanishi va rivojlanishi yigirma yildan ortiq tarixga ega (Palata maqomiga ega “Soliq maslahatchilari palatasi” jamoat birlashmasi 2009-yil 31-iyulda tashkil etilgan). O`tgan davr mobaynida ushbu soha qonunchilik

darajasida soliq maslahatchisining aniq milliy modelini shakllantirishga hamda yuklatilgan vazifalarni bajarishda va samaradorlikni ta’minlashda maqbul natijaga erisha oldi, ammo sohada bugungi zamondan kelib chiqib ayrim kamchiliklar ham yo`q emas. Garchi soliq maslahati instituti MDH davlatlarida eng oldilar qatorida desak ham (Misol uchun qo`shni Qozog`istonda soliq maslahatini tartibga solish bo`yicha bironta qonun ham ishlab chiqilmagan, faqat loyiha mavjud xolos). Lekin bugungi zamonda mamlakatdagi investitsiya muhitini yaxshilash va liberal biznes sharoitlarini kengaytirishni xohlasak, o`z darajamizni MDH davlatlari bilan taqqoslashimiz noto`g`rib o`ladi. Zero bu islohotlarda ilgarilab ketgan Yevropa davlatlari borki, ulardan andoza olish ijobiy natija berishi ehtimoli juda yuqori. Shuning uchun ushbu maqolada O`zbekiston soliq maslahati institutini Yevropa davlatlari bilan qiyoslash maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi davlat darajasida soliq maslahati institutining rivojlanishi (nafaqat soliq maslahatchilar soni, balki sifati ham) va soliq maslahatchilari maqomini mustahkamlashga, mutaxassislarning malaka darajasini oshirishga imkon beradi.

Tadqiqotning asosiy mazmuni

Soliq maslahati xizmatlaridan foydalanish zarurati soliq boshqaruvi sohasida taklif etilayotgan boshqaruv qarorlarining bir vaqtning o‘zida ham soliq qonunchiligiga to‘liq rioya etilishiga, ham davlat byudjetiga daromadlarning to‘liq kelib tushishiga qaratilgani, shuningdek, soliq yukini kamaytirish va soliq tavakkalchiliklarini pasaytirish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash hamda uning barqaror rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgani bilan izohlanadi.

Soliq maslahati nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga xorijlik olimlar R.Busse [1], C.D.MacRae [2], N.Dararmayasaa, Y.R.Aneswarib [3], L.P.Grundel [4], N.I.Malis [5], D.G.Chernik, L.S.Kirina, N.A.Goroxova [6], L.A.Mazurina [7], D.A.Artemenko [8], N.Lagodiyenko, I.Yakushko [9] va boshqalar salmoqli hissa qo‘shgan.

Bugungi kunda O`zbekistonda soliq maslahatining nazariy, tashkiliy va uslubiy asoslari mavjud va davlat tomonidan tartibga solingan. Ammo qonunga asosan soliq maslahatchilariga malaka talablari quyidagicha:

Bir vaqtning o‘zida quyidagi talablarga javob beradigan shaxs malaka sertifikatini olish uchun talabgor bo‘lishi mumkin:

oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs;

Soliq maslahatchilari palatasi tomonidan belgilangan tartibda soliq maslahatchilarini tayyorlash bo‘yicha kursni o‘tagan shaxs;

kamida besh yil ish stajiga, shu jumladan iqtisodiy yoki yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yil ish stajiga ega bo‘lgan shaxs.

Talablar shunday bo`lishi juda yaxshi albatta, ammo kursda o`qish narxlari va boshqa moliyaviy xarajatga borib taqaladigan talablar (kurs narxi bugungi kunda formatda MHTEKMning 15 barobari, ya’ni 19 065 000 so`m) bugungi kunda soliq maslahatchilari sonini oshishiga salbiy ta’sir qilayotgandek. (Garchi akkreditatsiyadan o`tgan o`quv markazlarida kurs pulini shartnoma asosida bo`lib to`lash imkoni mavjud bo`lsa ham). O`z navbatida oliy bakalavr ma’lumotli, soliqqa tortish yo`nalishini yilda tugatayotgan shunday talabalar ham borki, ularga ushbu kurs bo`yicha o`qish (oddiy qilib aytganda-soliqlarga qayta o`qish) talabini bekor qilish (faqat shu yo`nalishda kunduzgi oliy ta’limni bitirganlarga) bekor qilish yoki Malaka oshirganlik haqida ma’lumotni bakalavr diploma bilan berish maqsadga muvofiq bo`ladi. (Shuningdek, bu tajriba 16.06.2026 yildagi PQ-227 sonli qarorga asosan yangi tashkil etilayotgan Soliq oliy maktabi bitiruvchilariga joriy etildi).

Lekin boshqa davlatlar bilan (Yevropa, Chexiya, Germaniya) qiyosiy tahlil qilinganda, taqqoslash mezonlarida va malaka talablarida sezilarli yengilliklar borligi ko‘rinadi. Xususan, davlat tizimi mavjud mamlakatlarda nomzodning shaxsiy sifatlariga sudlanmaganligi, to‘lanmagan qarzlari va sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolari yo‘qligi, to‘liq muomala va huquq layoqatiga egaligi kabi talablar kiradi. O`zbekistonda “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi qonunning 28-moddasi 3-bandida qonunda belgilangan tartibda Malaka sertifikatining amal qilishi Soliq maslahatchilari palatasining yoki sudning qarori asosida tugatilishi belgilangan. Jumladan, soliq maslahatchisi sertifikatini tugatish uchun quyidagilar asos bo`lishi belgilangan:

- soliq maslahatchisining arizasi;
- soliq maslahatchisining har yilgi malaka oshirishdan Soliq maslahatchilari palatasi tomonidan belgilangan tartibda o‘tmaganligi;
- soliq maslahatchisining vafot etganligi;
- soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish huquqidan mahrum etish tarzidagi jazoni nazarda tutuvchi sud qarorining qonuniy kuchga kirganligi;
- fuqaroni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi sud qarorining qonuniy kuchga kirganligi;
- soliq maslahatiga oid faoliyatda uch yil davomida ishtirok etmaganlik (bundan homiladorlik va tug‘ish, shuningdek bolani parvarishlash bo‘yicha ta’til davri mustasno);
- malaka sertifikati soliq maslahatida ishtirok etish uchun foydalanish maqsadida boshqa jismoniy shaxsga berilganligi faktining aniqlanganligi;
- soliq maslahatchisi tomonidan soliq maslahati berish davomida olingan ma’lumotlar mijozning (ishonch bildiruvchining) yozma ruxsatisiz uchinchi shaxslarga taqdim etilganligi;
- soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishda soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risidagi qonunchilikning bir yil ichida ikkita buzilishi sodir etilganligi.

Ayni paytda davlat tomonidan tartibga solish tizimiga ega mamlakatlarda soliq maslahatchilarining javobgarligi nazarda tutilgan (mijozga zarar yetkazilgan taqdirda majburiy sug‘urta shartnomasi). Bu omillarning barchasi soliq maslahatchilari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, soliq qonunchiligi doirasida soliqqa tortish masalalari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlashda ularning mas’uliyatini oshiradi. O`zbekiston Respublikasi “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasi, 9-xatboshisida ham soliq maslahatchilari tashkiloti fuqarolik javobgarligini sug‘urta polisiga ega bo‘lishi lozimligi keltirilgan, ammo Germaniyadagi qonundagi kabi sug`urta polisi minimal miqdori keltirilmagan. Bu soliq maslahatchilari tashkiloti mijozlar va uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini ta’minlash uchun fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash, o‘z a’zolarini fuqarolik javobgarlikka tortish yoki fuqarolik javobgarlikni ta’minlashning O`zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa usullaridan foydalanishini anglatadi. Holbuki, Germaniyada, masalan, soliq maslahatchilariga fuqarolik javobgarlik sug`urtasining eng kam miqdori 250 ming yevroni tashkil etadi.

Shu munosabat bilan O`zbekistonda soliq maslahatchilari institutini yaratish va uni yanada rivojlantirish uchun xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya tajribasiga tayanish zarur. Germaniya tajribasidan foydalanish soliq maslahatchilarining javobgarlik tizimini qonunchilik darajasida joriy etishni nazarda tutadi. Shuningdek, bu mamlakatda soliq qonunchiligini takomillashtirish maqsadida soliq organlari va soliq maslahatchilarining hamkorlikdagi faoliyati keng yo‘lga qo‘yilgan.

Shunday qilib, O`zbekiston sharoitida soliq maslahatini rivojlantirish instituti muammolarining ilmiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmaganligi (yaxshi o`rganilgan, ammo rivojlanmagan) hamda ularni hozirgi bosqichda har tomonlama hal etishga bo‘lgan dolzarb ehtiyoj ushbu loyiha mavzusining tanlanishi va ahamiyatini belgilab berdi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning ilmiy yangiligi soliq maslahati institutining milliy

modelini ushbu yo‘nalishdagi mavjud jahon tendensiyalari bilan qiyosiy tahlil qilish hamda uning dolzarbligi va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan nazariy konsepsiyalar asosida aniqlashdan iborat.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda bu kasb ancha keng tarqalgan bo‘lib, soliq maslahatining o‘zi anchagina daromadli faoliyat hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasida soliq maslahatining muammolarini aniqlash va istiqbollarini belgilash uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

- *Ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish usuli* – jahon tajribasidan foydalangan holda soliq maslahati institutlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari majmuini tahlil qilishga, tartibga solishning mavjud tizimlari va soliq maslahati institutlarining o‘zaro hamkorligidagi afzallik va kamchiliklarni aniqlashga hamda sotsiologik so‘rovlar natijalarini sharhlashga imkon beradi;

- *Ekspert baholash usuli* – soliq maslahati faoliyatining amaldagi sharoitlarida uning rivojlanishini subyektiv baholash, muammoli masalalarni hal etishda ekspertlar tajribasini o‘rganish, shuningdek, soliq maslahati institutini yanada rivojlantirishning zaruriy istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi;

- *Sotsiologik so‘rov usullari* – soliq maslahati xizmatlari bozorining holatini, aholining soliq maslahatchilari faoliyatidan qay darajada qoniqishini baholash imkonini beradi.

- *Sintez usuli* – davlat va jamiyatning soliq maslahatchilariga qo‘yadigan talablaridan kelib chiqib, asosiy tarkibiy qismlarni bir butunga birlashtirish imkonini beradi.

- *Tizimli optimallashtirish usuli* – soliq maslahati institutini yaratish va uning samaradorligini baholash tizimini optimallashtirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar tizimini qurish imkonini beradi;

- *Modelni rivojlantirish usuli* – O`zbekiston Respublikasida soliq maslahatchisi modelini yanada rivojlantirish va Yevropa darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi;

- *Ekspert so‘rovi* – soliq maslahati institutining rivojlanishini prognozlash, ommaviy so‘rovning ishonchlilik darajasini baholash, shuningdek, soliq maslahatidagi muammoli sohalar haqida dastlabki ma’lumotlarni to‘plash imkonini beradi;

- *Kompetensiyaviy yondashuv* – soliq maslahatchilari o‘z ko‘nikmalari, tajribasi va vazifalaridan kelib chiqib, ega bo‘lishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar to‘plamini aniqlash imkonini beradi.

O`zbekistonda Soliq maslahatchilari palatasi maslahatchilarning eng yirik kasbiy uyushmasi hisoblanadi (1-rasm):

1-rasm. 2009–2026-yillar davomida sertifikatlangan soliq maslahatchilari soni dinamikasi



(*22.06.2026 yil holatigacham ma’lumot)

O`zbekiston Respublikasi Soliq maslahatchilari palatasi

rasmiy sayti (pnk.uz) ma’lumotlariga asosan tuzilgan

Soliq maslahatchilari palatasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlariga ko‘ra, 20 yil davomida malaka sertifikatiga ega bo‘lgan maslahatchilar soni dinamikasini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: 2009-yilda 9 kishi soliq maslahatchisi sertifikatini olgan. 2019-yilda malakali maslahatchilar soni 139 nafarga yetgan va karantin sababli 2020 yil va 2021 yillarda o`zgarish bo`lmagan, 22.06.2026 yil holatiga esa 323 nafarga yetgan. Soliq maslahatchisi kasbiga bo‘lgan talabning bunday dinamikasi soliq maslahati xizmatlari bozorida talab faqat ortib borishini tasdiqlaydi (2026-yil uchun ma’lumotlar to‘liq emas). Soliq maslahatchilari palatasi saytida berilgan reyestrda jami 323 nafar shaxs ro‘yxatga olingan. Soliq to‘lovchilar ko‘pincha soliq maslahati xizmatlarini taklif qiluvchi xususiy kompaniyalar va jismoniy shaxslarga murojaat qiladi.

Soliq maslahatchisi kasbining tavsifi quyidagilarni o‘z ichiga oladi (2-rasm):

Tashkilotlarga ham, jismoniy shaxslarga ham soliq qonunchiligini qo‘llash bo‘yicha maslahat xizmatlarini ko‘rsatish

Zaruriy tavsiyalarni ishlab chiqish

soliq bazasini shakllantirish, soliqlar va yig‘imlar turlari, soliq solish maqsadida tannarxga kiritiladigan xarajatlar tarkibi, imtiyozlardan foydalanish va hokazolar bo‘yicha

Soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlarini, soliq organlari va ularning mansabdor shaxslari xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirish;

Tashkilotlar va jismoniy shaxslar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda soliqqa tortishni optimallashtirish variantlarini ishlab chiqish;

Oxirgi uch yil mobaynida yillik aylanmasi har yiliga 10 mlrd so`mdan oshmagan soliq to`lovchilarning faoliyatini tugatish yuzasidan soliq organiga xulosa berish va h.k.

2-rasm. Soliq maslahatchisi kasbining tavsifi

Soliq maslahatchisi har bir soliq to‘lovchiga yondasha oladi, vaziyatning nozik jihatlarini o‘rganadi, amaldagi qonunchilikka tayanib muammoning yechim variantlarini taklif qiladi hamda murakkab vaziyatni hal qilishdagi xatarlarni baholaydi.

Shuningdek, u quyidagilarni bajara olishi kerak:

- soliq va buxgalteriya hisobini yuritish;
- korxonada soliq siyosatini ishlab chiqish; korxonada moliyaviy tahlil o‘tkazish;
- soliqlar va yig‘imlarni hisoblash hamda to‘lash uchun asosni hisoblab chiqish;
- soliq tekshiruvlarini o‘tkazish;
- soliqlarni qonuniy optimallashtirish choralari.

“Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida” qonunga asosan, soliq maslahatining asosiy prinsiplarini ajratib ko‘rsatamiz:

Qonuniylik. Soliq maslahatiga oid faoliyat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Mustaqillik. Soliq maslahatiga oid faoliyat davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslar ta’siridan mustaqil bo‘lishi kerak.

Soliq maslahatchilari o‘z faoliyatining mustaqilligiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishni rad etishi mumkin.

Kasbiy bilimga egalik. Soliq maslahatchilari kasbiy bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi hamda ularni soliq maslahatchilari tashkiloti tarkibida soliq maslahati bo‘yicha sifatli xizmatlar ko‘rsatish uchun yetarli bo‘lgan darajada saqlab turishi kerak.

Maxfiylik. Soliq maslahatchilari soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish jarayonida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlarni soliq maslahati bo‘yicha o‘ziga xizmatlar ko‘rsatilgan shaxslarning yozma roziligisiz oshkor qilishga hamda o‘zgalarga berishga haqli emas.

Soliq maslahatchisining zamonaviy modeli asosan tarqoq bilimlarga, shaxsiy hayotiy tajriba va sog‘lom aqlga tayanadigan mutaxassislarni ishga jalb etishi bilan tavsiflanadi. O`zbekiston Respublikasining doimiy o‘zgarib turuvchi soliq qonunchiligi sharoitida (bugungu kunda bu o`ziga hos “moda”ga aylangan) tashkilot o‘z faoliyatini, jumladan, soliq hisoblash va to‘lashni optimallashtirish masalalari bo‘yicha kompleks diagnostikadan o‘tkazishi qiyin bo‘lishi mumkin. Shu munosabat bilan soliq maslahatchiligi institutini yanada rivojlantirish zarur. Soliq maslahati mustaqil faoliyat turi sifatida katta istiqbollarga ega, biroq O`zbekiston Respublikasida u hali rivojlanmagan.

XULOSA

Demak, hozirgi kundagi eng dolzarb muammolar quyidagilardir:

1. Boshqaruv madaniyatining yetishmasligi. Bu holat tadbirkorlarning soliq maslahatchilariga alohida toifa sifatida to‘laqonli jiddiy qaramasligida namoyon bo‘ladi. Jismoniy shaxslar ham xuddi shu fikrda. Ularda esa maslahatchilarning malakasiga nisbatan ishonchsizlik va shubha yanada kuchliroq. Axir, soliq idoralari bilan bog‘liq murakkab masalalarni hal etish mutaxassislardan yuqori salohiyat talab qiladi.

2. Soliq maslahatchilariga kasbiy talabni yengillashtirish (Lekin faqat “Soliqlar va soliqqa tortish” yo`nalishida bakalavr diplomiga ega bitiruvchilarga diplom bilan bir paytda soliq maslahatchilarini tayyorlash bo‘yicha kursni o‘taganlik haqida ma’lumotnoma berish orqali).

3. O`zbekiston Respublikasida soliq qonunchiligining beqarorligi. Bunga Soliq kodeksining tubdan o‘zgartirilishini misol qilib keltirish mumkin. Birgina 2025 yilning o`zida O`RQ-1011, O`RQ-1013 va O`RQ-1014 larga asosan Soliq kodeksining 37 ta moddasiga o`zgartirish kiritildi. Bu shuni anglatadiki, bunday sharoitda maslahatchilarning ishlashi qiyinlashadi, chunki soliq qonunlari har yili o‘zgarib turadi, maslahat xizmatlari mijozlari esa noto‘g‘ri maslahat olish xavfiga duch keladi.

4. Soliq maslahatchilari sonining tashkilotlar soniga nisbatan olganda kamligi. 14.03.2026 yil holatiga O`zbekistonda jami 576 800 tani, Yakka tartibdagi tadbirkorlar esa 01.04.2026 yil holatiga 324 090 tani tashkil etgan (statistika ma’lumotlariga asosan). Jami YaTT va korxonalarga nisbatan olganda 2 789 ta korxonaga bitta soliq maslahatchisi to`g`ri kelmoqda. Shuningdek, bu ro`yxatga soliq deklaratsiyasini to`ldirish zarurati yuzaga keladigan jismoniy shaxslar kiritilmagan. Taqqoslash uchun Germaniyada 35 ta, Avstriyada esa 109 ta korxonaga 1 ta soliq maslahatchi to`g`ri keladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun O`zbekiston Respublikasida soliq maslahati institutini yanada rivojlantirishning quyidagi yo‘llarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- “Soliqlar va soliqqa tortish” yo`nalishida bakalavr diplomiga ega bitiruvchilarga diplom bilan bir paytda soliq maslahatchilarini tayyorlash bo‘yicha kursni o‘taganlik haqida ma’lumotnoma berish;
- Soliq maslahatchilari xulosasi asosida yopilishi mumkin bo`lgan korxonalar oxirgi uch yildagi har yilgi aylanma summasini 10 mlrd so`mdan BHMning 120 000 barobarigacha (22.06.2026 holatiga 49 440 000 000 so`mga) oshirish, shuningdek, “tavakkalchilikni tahlil qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi vositasida aniqlanadigan, soliq xavfi darajasi yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilar ixtiyoriy tugatilganda ham xulosa berish vakolatini berish;
- Soliq maslahatchilarining mijozlar oldidagi javobgarligini nazarda tutuvchi fuqarolik javobgarligi sug`urtasi minimal miqdorini belgilash (mijozlar ishonchini oshirish uchun) zarur.

Shuningdek, soliq maslahatchilariga tadbirkorlar tomonidan keraklichalik jiddiy qaralmaydi. Bu muammoning yechimi fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ya’ni maxsus kurslar, seminarlar, vebinarlar va shu kabilarni tashkil etishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, soliq maslahati ko‘p qirrali jarayondir. Soliq maslahatchilari taqdim eta oladigan qadriyatni anglash ularga maqsadlarni belgilashda hamda yakuniy xizmatlar sifati va natijalariga oid talablarni shakllantirishda yordam beradi.

Soliq ma’muriyatchiligi vositalarini takomillashtirish, xususan, nazoratning fiskal usullaridan soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi hamkorlik usullariga o‘tish soliq maslahati bozorining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, asosiy muammolarni hal qilish yo‘llarini belgilaydi va bularning amalga oshirilishi soliq maslahati xizmatlari samaradorligini oshiradi.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O`zbekistondagi soliq maslahati institutining kamchiliklari va afzalliklarini aniqlash imkonini beradi, bu esa kelajakda rivojlanishning to‘g‘ri tezlashtirilgan yo‘nalishini tanlashga va faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O`zbekiston Respublikasida soliq maslahati institutini yanada rivojlantirish muhim va zarur vazifadir. Mustaqil va mas'uliyatli maslahat olish imkoniyati soliq to'lovchilarning soliq savodxonligi va huquqiy xabardorligini oshirishga hissa qo'shadi va natijada soliq organlari bilan munosabatlarning yaxshilanishiga hamda soliq yig'imlarining ortishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. PQ-227, 16.06.2026 yil. Manba: https://lex.uz/ru/docs/-8275560
2. Ulagat Yussupov, Shakizada Niyazbekova, "TOPICAL ISSUES AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE OF TAX CONSULTING IN THE EAEU" nomli maqola (AUDİT 2022, 4 (38), səh.29-37).
3. Busse R. Soliq nizolari: Germaniyada hal etish amaliyoti // Moliya, 2008, № 7.
4. C.Duncan MacRae Soliq maslahati tizimida foydalanuvchini boshqarish bilimlari // IFAC Proceedings Volumes. 19-jild, 17-son, 1986-yil mart, 193–203-betlar - URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1474667017694047?via%3Dihub
5. Nyoman Darmayasaa, Yuyung Rizka Aneswarib. Soliq maslahatchisining mahalliy madaniyatga asoslangan axloqiy amaliyoti // Procedia - Ijtimoiy va xulq-atvor fanlari. 211-jild, 2015-yil 25-noyabr, 142–148-betlar. –
6. URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042815053616
7. Grundel L.P. Soliq maslahati: oliy o'quv yurtlari uchun darslik va praktikum / L.P. Grundel.
8. - Moskva: "Yurayt" nashriyoti, 2022. - 257 b. - (Oliy ta'lim). - ISBN 978-5-534-11774-5. — Matn: elektron // "Urayt" o'quv platformasi [sayt]. — URL: https://urait.ru/bcode/496001
9. Malis N.I. Soliq hisobi va hisoboti: oliy o'quv yurtlari uchun darslik va praktikum / N.I. Malis, L.P. Grundel, D.I. Ryaxovskiy, A.S. Zinyagina; N.I. Malis tahriri ostida. - 4-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan - Moskva: "Yurayt" nashriyoti, 2022. - 411 b. - (Oliy ta'lim). - ISBN 978-5-534-14506-9. — Matn: elektron // "Urayt" o'quv platformasi [sayt]. — URL: https://urait.ru/bcode/488333
10. Chernik D.G., Kirina L.S. Goroxova N.A.: Soliq maslahati. Darslik. Nashriyot: "Ekonomika", 2016. ISBN: 978-5-282-03422-6. - 422 b.
11. Mazurina L.A. Soliq maslahati. Nazariya va amaliyot.
12. "ANALITIKA RODIS" nashriyot uyi. - Moskva viloyati, Noginsk. - 2011. - 252 b.
13. Artemenko D.A. Korporativ transfer narxlarini belgilash bo'yicha soliq maslahati // Janubiy menejment institutining ilmiy byulleteni. - Iqtisodiyot va biznes. – 2015.
14. Lagodiienko Nataliia, Yakushko Inna. Soliqqa tortishda raqamli innovatsiyalar: bibliometrik tahlil // Marketing and Management of Innovations, 3-son, 2021, ISSN 2227-6718 (onlayn) — Manba: https://armgpublishing.com/wp-content/ uploads/mmi/volume-12-issue-3/A523-2021-06_Lagodienko%20et%20al_0.pdf
15. Soliq maslahatini tashkil etishning xorijiy tajribasi. Manba: https://bstudy.net/771708/pravo/zarubezhnyy_opyt_organizatsii_nalogovogo_konsultirovaniya
16. "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni. Manba: https://lex.uz/ru/docs/-6141486.